

## PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMIDA DUAL TA'LIMNING O'RNI

*Xo'janazarova Feruza Abdulxoshimovna*  
*To'raqo'rg'on tuman 1-son politexnikumi*  
*O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari*

**Annotatsiya.** Professional ta'limda o'qitishning dual shakli nazariy va ishlab chiqarish, amaliy mashg'ulotlar bir vaqtning o'zida amalga oshiriladigan dunyodagi professional va texnik kadrlar tayyorlashning eng samarali shakllaridan biri sifatida baholanadi. Ushbu jarayon o'quvchilarning kasbiy ta'limida korxonalarning bevosita ishtirokini o'z ichiga oladi. Ayni shu jihatdan, maqolada professional ta'lim tizimida dual ta'lim tushunchasi va uning ahamiyati haqida qarashlar bayon etiladi. Mamlakatimizda dual ta'limni rivojlantirish borasidagi ishlar borasidagi mulohazalar bildiriladi.

**Kalit so'zlar:** professional ta'lim, dual ta'lim, o'quvchi, korxona, kasbiy ta'lim, amaliyot, professional kadr, nazariya, ta'lim muassasalari.

Mamlakatimizda ta'lim tizimi va uni rivojlantirish bo'yicha qator islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, professional ta'lim tizimini rivojlantirish va bunda dual ta'limni joriy etish yangi natijalarni ko'rsatmoqda. Hozirgi davrda yurtimizda kasb va lavozimlar klassifikatorida 9145 ta mutaxassislik mavjud bo'lib, ulardan 6282 tasi bo'yicha o'rta maxsus malaka darajasi kerak bo'ladi. Ayniqsa, respublikamizning barcha jabhalarida qurilish, yengil sanoat, metalga ishlov berish, qishloq xo'jaligi mexanizatsiyasi, aholiga xizmat ko'rsatish va boshqa sohalar bo'yicha kichik o'rta bo'g'in mutaxassislariga hozirgi vaqtda juda katta ehtiyoj mavjud. Ushbu yo'nalishda respublikada yangi professional ta'lim tizimi faoliyatini yo'lga qo'yish, o'rta bo'g'in mutaxassislar va ishchi kasblar bo'yicha kadrlar tayyorlashning samarali mexanizmlarini shakllantirish maqsadida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi qarori bilan Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 23-sentabrdagi yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida" gi qonunida ham professional ta'limning ahamiyati alohida qayd etilgan. Unga ko'ra, professional ta'limni amalga oshirish birinchi navbatda kasb va mutahassislik bo'yicha Boshlang'ich professional ta'lim, O'rta professional ta'lim va o'rta maxsus professional ta'limlar tarkibida namoyon bo'ladi. Bunda boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida 9-sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumiy o'rta ta'lim fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari vositasida olib boriladi.

Professional ta'lim muassasalarida jahon andozalariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash ko'p jihatdan professional ta'limida zamonaviy ta'lim tendensiyalarini joriy etilishiga bog'liqdir. O'z navbatida bu o'quv jarayonini ilg'or pedagogik texnologiyalar talabi asosida tashkil qilish orqali amalga oshirilishini taqozo qiladi. Bu esa ta'lim jarayonini bozor iqtisodiyoti talablarini inobatga olgan holda tashkil etish, unga tegishli o'qitish texnologiyalarni joriy qilish, ta'lim mazmunini doimiy ravishda yangilab borishga qaratilgan metodik ta'minotni takomillashtirish zaruratini keltirib chiqaradi. Mutlaqo professional ta'limning asosiy missiyalarini amalga oshirish professional ta'lim tizimiga dual ta'limni joriy etish hamda mutaxassislarni tayyorlashda zamonaviy o'qitish texnologiyalari bilan uzviylikda kasbiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish va uni pedagogik nuqtai nazardan tadqiq qilish hamda uni yangi sifat bosqichiga olib chiqish texnologiyalari va metodikalarini yaratish talabini qo'yadi.

Hozirgi davrda o'qitishning dual shakli nazariy va ishlab chiqarish, amaliy mashg'ulotlar bir vaqtning o'zida amalga oshiriladigan dunyodagi professional va texnik kadrlar tayyorlashning eng samarali shakllaridan biridir. Bu o'quvchilarning kasbiy ta'limida korxonalarining bevosita ishtirokini o'z ichiga oladi. Korxonada amaliy mashg'ulotlar o'tkazish uchun sharoitlar yaratilgan va o'quvchilar uchun har oylik to'lovlarni hisobga olgan holda barcha xarajatlar qoplanadi. Ta'lim muassasalari korxonalar bilan teng asosda hamkorlik qiladi. "Dual" so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, biror narsaning ikki qismga taalluqliligi, ikkita narsani ifodalovchi, ikki qismdan iborat, degan ma'nolarni bildiradi. Dual ta'lim – o'quvchi/talabaga ta'limni o'z yo'nalishiga mos tashkilotda mehnat qilish bilan birga olib borish imkoniyatini beruvchi tizimdir. Bunda yoshlar 2-3 kun ta'lim muassasasida nazariy bilimlarni va 3-4 kun korxona va tashkilotlarda haqiqiy ish jarayonlarida amaliy ko'nikmalarni egallaydi.

Dual ta'lim shaklida tahsil olayotgan o'quvchi yoki talaba korxona va tashkilotlarda ishga qabul qilinganda ularga korxona tomonidan ustoz birlashtiriladi va oylik maoshi to'lanadi. Mamlakatimizda ushbu tizim tizimi Germaniya tajribasi asosida amaliyotga joriy qilingan. Buning natijasida quyidagi ishlar amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Dual ta'lim tizimi akademik va kasb-hunar ta'limini o'zida mujassam etgan o'ziga xos yondashuv bo'lib, ayniqsa kasb-hunar ta'limida keng tarqalgan. Bu model nazariya va amaliyotni o'zaro almashish, ta'lim muassasalari va korxonalar o'rtasidagi faol o'zaro hamkorlik, shuningdek, muayyan kasb uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarni shakllantirish tamoyillariga asoslanadi. Professional ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini rivojlantirish, yangi pedagogik va zamonaviy axborotlar texnologiyalari bilan ta'minlash, shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilariga zaruriy va yetarli shart-sharoitlarni yaratishga asos sifatida xizmat qilayotgan va bir qator qabul qilingan

hukumat qarorlari davlatimiz tomonidan ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilariga bo'lgan e'tiborning yanada ortib borayotganligidan dalolatdir.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, mamlakatimizda o'qitishning dual shakli nazariy va ishlab chiqarish, amaliy mashg'ulotlar bir vaqtning o'zida amalga oshiriladigan dunyodagi professional va texnik kadrlar tayyorlashning eng samarali vositasidir. Bu o'quvchilarning kasbiy ta'limida korxonalarning bevosita ishtirokini o'z ichiga oladi. Korxonada amaliy mashg'ulotlar o'tkazish uchun sharoitlar yaratilgan va o'quvchilar uchun har oylik to'lovlarni hisobga olgan holda barcha xarajatlar qoplanishi ta'minlanadi. Ta'lim muassasalari korxonalar bilan teng asosda hamkorlik qiladi. Ayon bo'ladiki, dual ta'lim tizimi – ixtisoslashgan ta'lim turi bo'lib, talaba nazariy bilimlarni ta'lim muassasasida, amaliy ko'nikmalarini esa bevosita ish joyida, ya'ni tashkilotda olish imkoniyatini yaratadi. Dual ta'limining asosiy maqsadi ta'lim muassasasi va ish beruvchilarning sa'y-harakatlari amaliy mashg'ulotlarning asosiy omili sifatida birlashtirib, talabalarning kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishdan iborat.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. D. Tojiboeva, A. Yo'ldoshev. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. Darslik. T.: "Aloqachi", 2009.
2. B. Haydarov, Dexkanova va boshqalar. Ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. Toshkent. Osiyo taraqqiyot banki. 2002.
3. Xodjaboev A.R., Xusanov L.A. Kasbiy ta'lim metodologiyasi. Darslik- T.: "Fan va texnologiya", 2007.
4. O. Abduquddusov, X.Rashidov. Kasb-hunar pedagogikasi. – T.: 2010
5. [http:// www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
6. [http:// www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
7. [http:// www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
8. [http:// http://www.tashiit.uz](http://www.tashiit.uz)